# O‘quv Dastur Pasporti

*O‘quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta’lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil 31 avgustdagi №UMO-48 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan. Amal qilish muddati 2027 yil gacha.*

<table>
<tr><td colspan="3">Ta’lim muassasasi nomi</td><td colspan="2">Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi</td></tr>
<tr><td colspan="3">Kafedra/bo‘lim</td><td colspan="2">Preventiv tibbiyot –valeologiya asoslari</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘quv dastur nomi</td><td colspan="2">«Valeologiya»</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘qish turi</td><td colspan="2">Umumiy malaka oshirish</td></tr>
<tr><td colspan="3">O‘quv dastur muallifi/mualliflari</td><td colspan="2">Sh.B. Irgashev, N.N. Fayzieva, D.I. Ermetova</td></tr>
<tr><td colspan="3">Tsiklning umumiy soati</td><td colspan="2">144 kredit</td></tr>
<tr><td colspan="5">Teachers and trainers conducting classes in the cycle</td></tr>
<tr><td><br>Associate Professor, Ph.D., Nozima Nurillayevna Fayziyeva</td><td><br>Sh.B. Irgashev, Doctor of Medical Sciences, Professor</td><td><br>O’.I. Mamadaliyeva, Assistant</td><td><br>K.A. Tulyaganova, Assistant</td><td><br>D.I.Alimova, Assistant</td></tr>
<tr><td colspan="3">Maqsad</td><td colspan="2">Valeologiya fani haqida tibbiyot xodimlarining tushunchasi yangilanib, mustahkamlanadi va tizimlanadi. Tibbiyot xodimlarining valeologiya fani asosi, uning maqsadi va vazifalari bilan kengroq tanishtirish va aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ayniqsa to‘g‘ri ovqatlanish, nutrisiyologiya bo‘yicha qo‘shimcha kasbiy kompetensiyalarini hosil qilish natijasida, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, salomatlikni muhofaza qilish, mustahkamlash va xavf omillari kabi muammolarni yechimini topishda zamonaviy nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar yangilanadi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Tsiklga taklif qilingan mutaxassislar — kontingent</td><td colspan="2">barcha soha shifokorla</td></tr>
<tr><td colspan="3">Tsikl vazifalari</td><td colspan="2">Umumiy valeologiya va uning rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha hosil qilish;<br>Salomatlik turlari, salomatlikka ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | tushunchasini mukammallashtirish; Hayot sifati, salomatlik sifati haqida tushuncha va uni baholash mezonlarini takomillashtirish; Aholining tibbiy madaniyatini shakllantirishning valeologik tamoyillarini amalga oshirish; Tibbiy etika va deontologiya masalalari, shaxslararo muloqot haqida tushuncha; Nutq madaniyatining tibbiyot xodimi faoliyatidagi o‘rni va uni rivojlantirish masalalari; Donozologik tashxis va valeogenez tushunchalarini ochib berish; Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi valeologik prinsiplari va uni hayotga tadbiq qilish yo‘llari; Valeologiya asoslari, nutrisiyologiya yo‘nalishlari;<br>Xususiy valeologiya prinsiplari va metodlarini o‘rgatish; Individual, guruhlar va populyatsion darajada organizmning rezervlarini inobatga olgan holda, aholi salomatlik darajasini baholash va uni xulq-atvoriga ta’sir etishning aniq mexanizmlarini o‘zlashtirish; “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” xonalarini tashkil etish va ularda ish olib borish xususiyatlarini o‘rgatish; Salomatlik miqdorini baholash va amaliyotga individual sog‘lomlashtirish dasturlarini tadbiq etish yo‘llarini qo‘llay olish; Tibbiyot xodimlarida hayotiy va ilmiy tasavvurni shakllantirishda milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni insonparvarlik mohiyatini ko‘rsatish asosida, tibbiyot xodimlarining qalbi |

<table>
<tr><td></td><td colspan="2">va ongiga singdirish.</td></tr>
<tr><td>Tsikl tarkibi</td><td colspan="2">1-modul. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi — Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, yangi me’yoriy hujjatlar<br>2-modul. Zamonaviy valeologiya va nutrisiyologiya asoslari, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish<br>3-modul. “Sog‘lom turmush tarzi” xonalarining maqsad va vazifalari, ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish<br>4-modul. Xususiy valeologiya — maqsadli guruhlarning xususiyatlari<br>5-modul. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda xulq-atvor omillarining o‘rni</td></tr>
<tr><td>O‘qish bazalari<br>1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Apparatira qarashli Tibbiy sanitariya birlashmasining 2-son Markaziy Poliklinikasi<br></td><td colspan="2">Toshkent viloyati, Toshkent tumani, ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi<br></td></tr>
<tr><td>Salomatlik xonasining jihozlanishi<br>
</td><td></td><td></td></tr>
</table>